BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SHOKIROV MUROD RUSTAMOVICH

O‘ZBEK MILLIY FALSAFASINING RIVOJLANISHIDA DIALEKTIK TAFAKKURNING O‘RNI (JONDOR TULENOV FALSAFIY MEROSI ASOSIDA)

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 101.1:316:162.6:1(575.1)

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on philosophical sciences

Shokirov Murod Rustamovich
O‘zbek milliy falsafasining rivojlanishida dialektik tafakkurning o‘rni (Jondor Tulenov falsafiy merosi asosida) 5

Шокиров Мурод Рустамович
Роль диалектического мышления в развитии узбекской национальной философии (на основе философского наследия Джондора Туленова**)**. 23

Shokirov Murod Rustamovich
Role of dialectical thinking in the development of Uzbek national philosophy (based on the philosophical heritage of Jondor Tulenov).....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of works published.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SHOKIROV MUROD RUSTAMOVICH

O‘ZBEK MILLIY FALSAFASINING RIVOJLANISHIDA DIALEKTIK TAFAKKURNING O‘RNI (JONDOR TULENOV FALSAFIY MEROSI ASOSIDA)

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fal1528 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Namozov Bobir Baxriyevich** falsafa fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Safarova Nigora Olimovna** falsafa fanlari doktori, professor
	Tulenova Karima Djandarovna falsafa fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “13” noyabr soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 200118, Buxoro tumani, Galaosiyo shahri, Ibn Sino ko‘chasi 1-uy (Xalqaro tadqiqotlar markazi), Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (99865) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1095- raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “31” oktyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “31” oktyabrdagi 38 raqamli reyestr bayonnomasi.)

K.B. Shodmonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi o‘rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

A.Z.Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

F.D. Muzaffarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi o‘zgarishlar, axborot muhiti va ijtimoiy voqelikdagi o‘zgarishlarning murakkab va ziddiyatli xarakteri insonning voqea-hodisalarni anglash va baholash usullariga nisbatan yangi talablarni qo‘yib, voqelikni biryoqlama idrok etishdan farqli o‘laroq, hodisalarning o‘zaro aloqadorligi, ziddiyatlari, sababiy bog‘lanishlari va rivojlanish tendensiyalarini yaxlit holda anglashni talab etmoqda. Hodisalarga bir tomonlama yondashish, ularning tarixiy shartlarini hisobga olmaslik va murakkab jarayonlarni soddalashtirib talqin qilish tafakkur madaniyatini rivojlantirish masalasini dolzarblashtirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tanqidiy va mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish, bag‘rikenglik va tinchlikni mustahkamlashda aloqadorlik, ziddiyat va rivojlanishni anglashga yo‘naltirilgan dialektik tafakkurning nazariy imkoniyatlarini o‘rganish, uning tarixiy shakllari bilan zamonaviy fikrlash ehtiyojlari o‘rtasidagi munosabatni aniqlash hamda milliy falsafiy merosda mujassamlashgan tafakkur tajribasini umuminsoniy intellektual taraqqiyot bilan bog‘liqlikda asoslab berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm fani, ta’lim muassasalarida falsafiy tafakkuri tarixini tadqiq etishda dialektikaning nazariya va metod sifatidagi talqinlarini qiyoslash, uning vorisiylik hamda mazmuniy o‘zgarishlarni aniqlash, muayyan milliy intellektual muhitda qanday o‘zlashtirilgani kabi muammolar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Dialektik tafakkur voqelikni harakat, o‘zgarish, o‘zaro aloqadorlik va rivojlanishda anglashga yo‘naltirilgan falsafiy fikrlash usuli sifatida insonning tabiat, jamiyat va tafakkur jarayonlarini yaxlit idrok etishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda Jondor Tulenovning falsafiy merosi, olimning dialektika, bilish nazariyasi, mantiq, metod va metodologiyaga oid qarashlari va ularning o‘zbek falsafiy tafakkuridagi o‘rnini hamda nazariy va metodologik ahamiyatini yaxlit konseptual asosda tadqiq etish zarurati ortib boochib berish ilmiy jihatdan muhimdir.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilmiy-intellektual salohiyatni rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan islohotlar milliy merosni tadqiq etish hamda yoshlarning tafakkur madaniyatini yuksaltirish orqali amalga oshirilmoqda. “Jamiyatimizning bugungi taraqqiyot bosqichi uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy va ma’rifiy hayotida o‘zgarish, yangilanish va inkor dialektikasi bilan bog‘liq holatlar tabiiy tarzda ro‘y bermoqda. Ushbu murakkab va serqirra yangilanish jarayonida hayotning barcha jihatlari va xususiyatlari bir kunda va avtomatik tarzda o‘zgarib, yangilanib ketmaydi, albatta. Bugungi yangi davrning ijtimoiy-siyosiy tuzilishiga mos keladigan, yangi tizim va tuzilmalar shakllanishi va oyoqqa turib ketishiuchun ish uslublarimiz va faoliyatimiz mezonlarini doimiy takomillashtirib borishimiz zarur”[1]. Raqamli muhit va globallashuv sharoitida Jondor Tulenov merosining dialektik tafakkurga oid qarashlari va milliy falsafaga qo‘shgan hissasi, dialektik tafakkurning yoshlar falsafiy dunyoqarashini shakllantirishdagi imkoniyatlarini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

[1] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: “O‘zbekiston”, 2023. –Б.457-458.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 3-may PQ-4307-son “Ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 26-mart PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, Vazirlar 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2026-yil 29-yanvardagi 34-son “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dialektika va dialektik tafakkur muammosi jahon falsafasi tarixida qadimdan tadqiq etib kelinayotgan muhim ilmiy-falsafiy masalalardan biridir. Dialektik tafakkurning nazariy asoslari qadimgi yunon faylasuflari – Geraklit, Suqrot, Aflotun va Arastu asarlarida shakllana boshlagan. Sharq mutafakkirlari, xususan Forobiy, Beruniy va Ibn Sino asarlarida ham olamning o‘zgarishi, rivojlanishi va hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi haqida muhim fikrlar bildirilgan. Keyinchalik dialektika muammolari nemis klassik falsafasi vakillari I.Kant, va Feyerbax tomonidan yanada rivojlantirilgan. I.G.Fixte subyekt faolligi, F.V.Shelling esa tabiat va tafakkur munosabatlarini falsafiy izohlashga e’tibor qaratgan. G.V.F.Gegelning “Ruh fenomenologiyasi”, “Mantiq ilmi” va “Falsafiy fanlar ensiklopediyasi” asarlarida tushunchalarning ziddiyati, muayyan inkor hamda rivojlanish jarayonidagi o‘zgarish munosabatlari tizimli bayon etilgan. Ushbu meros dialektik tafakkurning tarixiy bosqichlarini aniqlash, ular o‘rtasidagi vorisiylikni va Jondor Tulenov qarashlarining umumfalsafiy manbalarini qiyosiy o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi[2].

[2] Гераклит. О природе // Антология мировой философии: в 4 т. - Москва: Мысль, 1969. - Т. 1. - 936 с.; Платон. Апология Сократа // Собрание сочинений: в 4 т. - Москва: Мысль, 1990. - Т. 1. - С. 81–96.; Платон. Собрание сочинений: в 4 т. - Москва: Мысль, 1990. - Т. 1. - 860 с.; Аристотель. Метафизика // Сочинения: в 4 т. - Москва: Мысль, 1976. - Т. 1. - 550 с.; Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. - 320 b.; Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - 480 b.; Abu Ali ibn Sino. Donishnoma. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. - 224 b.; Кант И.

MDH mamlakatlari olimlari V.G.Afanasev, M.B.Mitin, T.I.Oyzerman, I.D.Andreev, A.I.Uyomov, L.B.Bajenov, E.G.Yudin, A.P.Sheptulin, V.S.Gott, L.K.Naumenko, M.S.Kagan, V.I.Kremyanskiy, V.N.Sagatovskiy, A.N.Averyanov dialektika masalalarini chuqur o‘rganib, bu yo‘nalishda muhim ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar. E.V.Ilyenkovning “Dialektik mantiq” asari alohida ahamiyatga ega[3].

O‘zbek faylasuflaridan rivojlanish haqidagi ta’limotning turli sohalari bo‘yicha E.Yusupov, M.Xayrullayev, A.Jalolov, O.Fayzullayev, B.To‘raev, Z.Davronov, H.Salomova, Q.Nazarov, N.Shermuhammedova, K.Tulenova, G.Tulenova, R.Shokirov, rivojlanish nazariyasi masalalari bo‘yicha R.Ro‘zieva, M.Nurmatova, I.Shermatov, R.Norliev, D.Bozarov, H.Ashirmatov, qadriyatlar dialektikasi haqida Z.Aripova, N.Urakova, N.Temirova, A.Qambarov[4] ilmiy ish olib borganlar.

Критика чистого разума // Сочинения: в 6 т. - Москва: Мысль, 1964. - Т. 3. - 799 с.; Гегель Г. В. Ф. Феноменология духа. - Москва: Наука, 2000. - 495 с.; Фейербах Л. Избранные философские произведения: в 2 т. - Москва: Мысль, 1995. - Т. 1. - 544 с.

[3] Афанасьев В. Г. Основы философских знаний: марксистская философия в общедоступном изложении. - Москва: Ленанд, 2024. - 408 с.; Митин М. Б. Философия и современность. - Москва: Ленанд, 2018. - 416 с.; Ойзерман Т. И. История диалектики. Немецкая классическая философия. - Москва: Либроком, 2017. - 320 с.; Андреев И. Д. Диалектическая логика. - Москва: Либроком,2018. - 368 с.; Уёмов А. И. Вещи, свойства и отношения. - Москва: Рипол Классик, 2013. - 190 с.; Баженов Л. Б. Строение и функции естественнонаучной теории. - Москва: Наука, 2005. - 232 с.; Никитин Л. Н. Основы философии. - Донецк: ДонНУЭТ, 2010. - 343 с.; Юдин Э. Г. Методология науки. Системность. Деятельность. - Москва: Ленанд, (URSS), 2016. - 448 с.; Шептулин А. П. Категории диалектики. - Москва: Высшая школа, 2017. - 240 с.; Готт В. С. Диалектика и системность научного знания. - Москва: Ленанд, 2017. - 304 с.; Науменко Л. К. Монизм как принцип диалектической логики. - Москва: Ленанд, (URSS), 2019. - 304 с.; Каган М. С. Философская теория ценности. - Санкт-Петербург: Петрополис, 2018. - 224 с.; Кремянский В. И. Методологические проблемы системного подхода к исследованию сложных систем. - Москва: Ленанд, (URSS), 2019. - 240 с.; Сагатовский В. Н. Вселенная философа. - Санкт-Петербург: Издательство Санкт-Петербургского университета, 2008. - 219 с.; Аверьянов А. Н. Системное познание мира: методологические проблемы. - Москва: Ленанд, (URSS), 2017. - 264 с.

[4] Юсупов Э. Қадриятлар ва уларнинг жамият тараққиётидаги ўрни. - Тошкент: Ўзбекистон, 1995. - 120 б.; Хайруллаев М. М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. - Тошкент: Ўзбекистон, 2011. - 272 б.; Жалолов А. Ўзбекистон: мустақиллик, маънавият, мафкура. - Тошкент: Ўзбекистон, 1994. - 224 б.; Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. - Тошкент: Фан, 2006. - 192 б.; Иванова К. И. Принцип причинности в системе принципов научного познания. - Ташкент: Фан, 1974. - 122 с.; To‘raev B. O. Ontologiya, gnoseologiya, logika va fan falsafasi muammolari. Tanlangan asarlar. I jild. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015. - 376 b.; Тўйчиев Б. Т. Фалсафа тарихи. - Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2010. - 320 б.; Давронов З. Д. Илмий ижод методологияси. - Тошкент: Иқтисод-молия, 2007. - 216 б.; Salomova H. Yu. Me’yor kategoriyasi: uning tarixi, nazariyasi, amaliyotdagi o‘rni va ahamiyati. - Buxoro: Durdona, 2019. - 220 b.; Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). - Тошкент, 2004. - 85 б.; Shermuhamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. - Toshkent: Aloqachi, 2022. - 398 b.; Туленов Ж., Теленова К., Туленова Г. Фалсафа. - Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2022. - 424 б.; Туленова Г. Ж. Фалсафа (мантиқ, этика, эстетика). - Тошкент: Фан ва технология, 2016. - 344 б.; Шокиров Р. Ў. Диалектик мантиқ. - Бухоро: “Дурдона”, 2009. - 120 б.; Рўзиева Р. Ҳ. Жамиятнинг маънавий янгиланишида миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлигини шакллантириш масалалари: фалсафа фанлари доктори диссертацияси. - Тошкент: ЎзМУ, 2012. - 304 б.; Нурматова М. А. Шахс маънавий камолотида эстетик ва ахлоқий қадриятлар уйғунлиги муаммоси: фалсафа фанлари доктори диссертацияси. - Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети, 2011. - 190 б.; Шерматов И.Ч. “Ижтимоий тараққиётда моддий ва маънавий ишлаб чиқариш жараёнларини уйғунлаштириш диалектикаси”. номз. дис.(PhD), - Тошкент: 2018. -120 б.; Норлиев Р. И. Миллий тараққиёт ва маънавий юксалишнинг ўзаро алоқадорлик хусусиятлари: фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент, 2011. - 144 б.; Бозаров Д. Синергетика парадигмасининг фалсафий-методологик таҳлили: фалс. фан. номз. дисс. - Тошкент, 2010. - 139 б.; Аширматов Ҳ. Ю. Ҳозирги замон нанотехнологиялар тараққиётининг синергетик таҳлили: фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2019. - 54 б.; Арипова З. С. Шахс ахлоқий фазилатлари такомилида миллий маънавият ва умуминсоний қадриятларнинг ўзаро алоқадорлиги: фалсафа фанлари номзоди диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2012. - 56 б.; Уракова Н.С. “Н.А.Бердяев фалсафасида қадриятлар муаммоси”, фалсафа фанлари номзоди диссертацияси автореферати. - Тошкент,

Ko‘rib chiqilgan ilmiy ishlar dialektika va dialektik tafakkur haqidagi qarashlarni shakllanishi va tarixiy rivojlanishga ta’sirini o‘rganishga e’tibor qaratilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur dissertatsiyada dialektika va dialektik tafakkurning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, Jondor Tulenovning dialektik tafakkurga oid qarashlarini o‘zbek milliy falsafasi rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqlikda tizimli tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band “Yangi O‘zbekistonda ma’rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari” (2022-2026-yy.) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Jondor Tulenov falsafiy merosi asosida dialektik tafakkurning o‘zbek milliy falsafasi rivojlanishidagi o‘rnini va yoshlarning fikrlash madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dialektika va dialektik tafakkurning mazmuni va mohiyatini, shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini hamda konseptual asoslarini tadqiq etish;

Jondor Tulenov falsafiy dunyoqarashining shakllanish manbalari, uning qarashlariga xos xususiyatlarni hamda dialektika nazariyasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasini qiyosiy tahlil qilish;

ijtimoiy taraqqiyotni dialektik tushuntirishda akademik Jondor Tulenov falsafiy qarashlarining o‘rnini ahamiyatini asoslash;

Jondor Tulenovning gnoseologik qarashlari asosida ijtimoiy ziddiyatlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va hal etilishi jarayonlarida dialektika qonunlari hamda kategoriyalarining namoyon bo‘lish xususiyatlarini ochib berish;

Jondor Tulenov dialektik yondashuvining ijtimoiy jarayonlarni o‘zaro aloqadorlik, o‘zgaruvchanlik va tarixiy shartlanganlik birligida tahlil qilishdagi metodologik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

Jondor Tulenovning qadriyatlar haqidagi qarashlarida shaxs ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish masalalari hamda qadriyatlar, ijtimoiy me’yorlar va mas’uliyat o‘rtasidagi aloqadorlikni asoslash;

o‘zbek milliy falsafasi rivojida Jondor Tulenov falsafiy merosining o‘rni hamda yoshlarda dialektik fikrlash madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini asoslab berishdan iborat.

2012. - 58 б.; Темирова Н.Э. “Талаба ёшларнинг маънавий шаклланишда миллий ва умуминсоний қадриятлар диалектикаси”. фалсафа фанлари номзоди диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2007. - 54 б.; Қамбаров А. А. Жамиятнинг маънавий янгиланиши жараёнида илмий қадриятларнинг роли: фалсафа фанлари номзоди диссертацияси автореферати. - Тошкент: 2006. - 52 б.; Сиддиқов И. Б. Ёшлар интеллектуал маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари. фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2020. - 44 б.; Примов Б. А. Ахборот оқими жадаллашувининг ёшлар маънавий-ахлоқий тарбиясига таъсири (ижтимоий-фалсафий таҳлил): фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. - Тошкент: 2020. - 147 б.; Хаджиев У. Ш. Ёшларнинг тафаккурини шакллантиришда шарқона маънавий-ахлоқий императивларнинг ўрни: фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2020. - 58 б.

Tadqiqotning obyekti sifatida jamiyat taraqqiyoti va shaxs rivojida dialektik tafakkurni shakllantirish jarayonlari hamda bunda Jondor Tulenov falsafiy merosi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Jondor Tulenov falsafiy qarashlari asosida ijtimoiy taraqqiyot va ziddiyatlarning dialektik xususiyatlari, qadriyatlarning shaxs ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishdagi o‘rni hamda yoshlarning dialektik fikrlash madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tizimli funktsional tahlil, qiyosiy tahlil, retrospektiv tahlil, germenevtik talqin, analiz va sintez, umumlashtirish hamda nazariy modellashtirish, dialektik va sinergetik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Jondor Tulenovning dialektika va dialektik tafakkurga oid qarashlari asosida o‘zbek milliy falsafasini rivojlantirishning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda ziddiyatlarni bartaraf etish, milliy qadriyatlar rivojida vorisiylik va yangilanish, shaxs va jamiyat munosabatlarini o‘zaro ta'sir hamda ijtimoiy mas'uliyat birligida ochib berish yo‘nalishlari aniqlashtirilgan;

Jondor Tulenovning dialektik konsepsiyasida rivojlanish qonunlari va kategoriyalarining ijtimoiy taraqqiyot manbalari, shart-sharoitlari va yo‘nalishlarini tushuntirishdagi o‘zaro aloqadorligi hamda ularning bilish jarayonida voqelikning ichki bog‘lanishlarini (sababiy shartlanganlik, mohiyatning hodisalarda namoyon bo‘lishi, imkoniyatning muayyan sharoitlarda voqelikka aylanishi) ifodalashi, taraqqiyotning muqobil imkoniyatlarini baholash va amaliyot bilan bog‘lashdagi metodologik ahamiyati asoslangan;

dialektik tafakkurning bilish munosabatlaridagi gnoseologik roli, obyektiv sharoitlar va subyektiv omillarni o‘zaro bog‘liqlikda baholash, ijtimoiy hodisalarni tarixiylik va mantiqiylik birligida o‘rganishga doir metodologik xususiyatlari hamda ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda ziddiyatlar dinamikasini kuzatish, miqdoriy o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga o‘tish shartlarini aniqlash va barqaror qonuniy aloqalarni vaqtinchalik holatlardan farqlashga oid yo‘naltiruvchi xususiyatlari ochib berilgan;

milliy falsafiy tafakkur taraqqiyotida dialektik yondashuvning zamonaviy ijtimoiy voqelikni anglashdagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta'minlash, an'anaviylik va yangilanish nisbatini barqarorlashtirish kabi imkoniyatlari hamda globallashuv va raqamlashuv sharoitida yoshlar dialektik tafakkurini rivojlantirishning muammoli vaziyatlar tahliliga asoslangan ta'lim, dalillarga tayangan munozara va axborotni tanqidiy tahlil qilish kabi mexanizmlari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Jondor Tulenovning dialektik qarashlari asosida ijtimoiy jarayonlarni o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish, ziddiyatlarning obyektiv sharoitlari va subyektiv omillarini farqlash hamda ularni hal etish imkoniyatlarini baholash zarurati asoslab berilgan;

olimning qadriyatlar haqidagi qarashlaridan ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda foydalanish orqali yoshlarda shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlari

bilan uyg‘unlashtirish, ijtimoiy burchni anglash hamda o‘z qarorlarining oqibatlariga mas’uliyat bilan yondashishni rivojlantirish ahamiyati ochib berilgan;

yoshlarda dialektik fikrlash madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan, muammoli vaziyatni aniqlash, qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni qiyoslash, dalillarni baholash va asoslangan xulosa chiqarish bosqichlarini qamrab oluvchi o‘quv-muhokama mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma’lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan xulosa va umumlashmalardan dialektika qonunlari hamda kategoriyalarining ijtimoiy jarayonlardagi namoyon bo‘lish xususiyatlarini tushuntirish, qadriyatlar va shaxs ijtimoiy mas’uliyatining aloqadorligi haqidagi tasavvurlarni boyitish, yoshlarning dialektik fikrlash madaniyatini shakllantirishning konseptual asoslarini takomillashtirishga qaratilganilmiy ishlarda, shuningdek, Jondor Tulenov merosining o‘zbek milliy falsafasi rivojlanishidagi o‘rnini baholash hamda ushbu yo‘nalishdagi keyingi tadqiqotlar uchun nazariy-metodologik imkoniyatlarini ochib berishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalar xalqimizning tarixiy madaniy-merosi, milliy qadriyatlarini targ‘ib qilishda, ta’lim hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni mazmunan takomillashtirishda, raqamli axborot muhitida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, shaxsiy qarorlarning ijtimoiy oqibatlarini anglash va mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlarni ishlab chiqishda, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “Falsafa”, “Mantiq”, “Madaniyatshunoslik”, “Siyosatshunoslik” kabi fanlar bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma, majmualar va falsafaga oid lug‘atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jondor Tulenov falsafiy merosi asosida o‘zbek milliy falsafasining rivojlanishida dialektik tafakkurning o‘rnini tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

Jondor Tulenovning dialektika va dialektik tafakkurga oid qarashlari asosida o‘zbek milliy falsafasini rivojlantirishning ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashda ziddiyatlarni bartaraf etish, milliy qadriyatlar rivojida vorisiylik va yangilanish, shaxs va jamiyat munosabatlarini o‘zaro ta’sir hamda ijtimoiy mas’uliyat birligida ochib berish yo‘nalishlariga oid xulosa va umumlashmalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan FZ-2020010829-son “Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida ishlab chiqilgan ilmiy va metodik tavsiyalar, mashg‘ulot ishlanmalari foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston

Milliy universitetining 2026-yil 6-maydagi 04/11-11540-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning o‘zbek xalqi milliy falsafasi haqidagi bilim va ko‘nikmalari kengayishiga, ularda dialektik fikrlash madaniyati rivojlanishiga, talabalar ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilgan metodik qo‘llanmalar mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

Jondor Tulenovning dialektik konsepsiyasida rivojlanish qonunlari va kategoriyalarining ijtimoiy taraqqiyot manbalari, shart-sharoitlari va yo‘nalishlarini tushuntirishdagi o‘zaro aloqadorligi hamda ularning bilish jarayonida voqelikning ichki bog‘lanishlarini (sababiy shartlanganlik, mohiyatning hodisalarda namoyon bo‘lishi, imkoniyatning muayyan sharoitlarda voqelikka aylanishi) ifodalashi, taraqqiyotning muqobil imkoniyatlarini baholash va amaliyot bilan bog‘lashdagi metodologik ahamiyatiga doir ilmiy yangilik va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda, yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish va “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari!” g‘oyasi atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarda, treninglar, konferensiyalar, seminarlar va tanlovlar tashkil etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2026-yil 19-maydagi 4-10-21-3524-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish hamda diniy bag‘rikenglik va insoniylik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qilgan;

dialektik tafakkurning bilish munosabatlaridagi gnoseologik roli, obyektiv sharoitlar va subyektiv omillarni o‘zaro bog‘liqlikda baholash, ijtimoiy hodisalarni tarixiylik va mantiqiylik birligida o‘rganishga doir metodologik xususiyatlari hamda ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlashda ziddiyatlar dinamikasini kuzatish, miqdoriy o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga o‘tish shartlarini aniqlash va barqaror qonuniy aloqalarni vaqtinchalik holatlardan farqlashga oid yo‘naltiruvchi xususiyatlari, ilmiy xulosalar va takliflardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2025-yil uchun chora-tadbirlar dasturi I yo‘nalishining 1-bandida belgilangan vazifalarni, jumladan ma’naviy-ma’rifiy ishlar ta’sirchanligini oshirish va mafkuraviy jarayonlarni boshqarishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni amalga oshirishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazihuzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2026-yil 3-iyundagi 10/389-son ma’lumotnomasi). Natijada, ma’naviy-ma’rifiy ishlar ta’sirchanligini oshirish, mafkuraviy jarayonlarni ilmiy asosda tahlil qilish, yoshlarda tanqidiy va dialektik fikrlash madaniyatini shakllantirish hamda targ‘ibot samaradorligini kuchaytirishga xizmat qilgan;

milliy falsafiy tafakkur taraqqiyotida dialektik yondashuvning zamonaviy ijtimoiy voqelikni anglashdagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash, an’anaviylik va yangilanish nisbatini barqarorlashtirish kabi imkoniyatlari hamda globallashuv va raqamlashuv sharoitida yoshlar dialektik tafakkurini rivojlantirishning muammoli vaziyatlar tahliliga asoslangan ta’lim, dalillarga tayangan munozara va axborotni tanqidiy tahlil qilish kabi mexanizmlari oid ilmiy yangiliklar va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi

“Buxoro” telekanalining 2026-yil yanvar va fevral oylarida efirga uzatilgan “Assalom, Buxoro” va “Maxsus reportaj” ko‘rsatuvlari hamda “Buxoro” radiosida efirga berilgan “Moziydan sado” va “Najot bilimda” radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Buxoro viloyati teleradiokanali” davlat muassasasining 2026-yil 20-maydagi 01-09-69-son ma’lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlar (tinglovchilar) bilan muloqot samaradorligini oshishiga, ko‘rsatuvlarning ilmiy-ommabop ta’sirchanligi kuchayishiga, ular uchun tayyorlangan materiallar mazmuni ilmiy dalillar bilan boyitishga va ko‘rsatuvlarning ilmiy-ommabopligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 152 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dialektik tafakkur taraqqiyotini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida dialektika va dialektik tafakkurning konseptual mazmuni, dialektikaning nazariya sifatida shakllanish bosqichlari hamda Jondor Tulenov falsafiy dunyoqarashining manbalari tadqiq etilgan.

Dialektika va dialektik tafakkur tushunchalari mazmunan farqlanadi. Dialektika borliq va bilishdagi umumiy aloqadorlik, o‘zgarish hamda rivojlanishni tushuntiruvchi qarashlar, qonunlar va tamoyillar tizimini ifodalaydi[5]. Dialektik tafakkur esa ushbu nazariy imkoniyatlarning muayyan hodisani anglash, tushunchalarni o‘zaro bog‘lash va chiqarilgan xulosalarni qayta ko‘rib chiqish faoliyatida namoyon bo‘lishidir.

Tadqiqotda dialektikaning tarixiy manbalari tahlilida olamdagi harakat va qarama-qarshiliklarni kuzatish, bahs orqali fikrni tekshirish hamda tushunchalar munosabatini aniqlash yo‘nalishlari ajratilgan. Qadimgi Sharq va Yunon tafakkuriga

[5] Туленов Ж. Диалектика назарияси. - Т.: Ўзбекистон, 2001. - Б. 5.

murojaat qilish orqali dialektik qarashlarning amaliy tajriba, tabiat haqidagi tasavvurlar va ijtimoiy muloqot ehtiyojlari bilan aloqadorligi asoslab berilgan. Geraklit qarashlarida o‘zgarish va qarama-qarshi tomonlarning birligi, Zenon muammolarida harakatni tushunchalarda ifodalash murakkabligi, Suqrotning savol-javob usulida esa mulohazaning asoslarini tekshirish masalasi tahlil markaziga chiqarilgan. Borliqdagi o‘zgarishni tan olish ontologik muammoni, uni tushunchalarda ifodalash gnoseologik muammoni, qarashlarni dalillar orqali tekshirish esa mantiqiy-metodologik muammoni yuzaga keltiradi. Ularning aloqadorligi dialektikani ijtimoiy ong va bilish madaniyatining rivojlanishi bilan bog‘liq holda tushuntirish imkonini beradi. Platon va Aristotel qarashlariga doir tahlilda tushunchalarni ajratish, umumlashtirish, dalillash va bahs yuritishning bilishdagi vazifalari ko‘rib chiqilgan.

Tadqiqotda dialektika atamasining kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi omillar va uning shakllanishiga o‘z ulushini qo‘shgan faylasuflarning ijodi, mazkur masalaga bo‘lgan munosabatlari haqidagi fikrlar izchil tarzda tahlil etilgan. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy va Ibn Sino kabi allomalar olamdagi narsalar, ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘zgarishi va rivojlanish sabablari haqida qimmatli fikrlarni bayon qildilar. Ular barcha o‘zgarishlarning sababini ilohiy kuchlar bilan birgalikda tabiiy qonunlar bilan bog‘lab tushuntirdilar. Dialektika atamasi o‘tmishda birinchidan, *bahs munozara yuritish orqali haqiqatga erishish quroli* sifatida, ikkinchidan *falsafiy fikrlash qoidalarini o‘zida mujassamlashtirgan tafakkur shakli* sifatida, uchinchidan, *fanning turli sohalarida narsa va hodisalarni har tomonlama bilish uchun qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqot usuli* sifatida qo‘llanilgan[6].

Dissertant fikricha, dialektikaning nazariya sifatida shakllanishi uchun XVIII asr oxiri-XIX asrning birinchi yarmida G‘arbiy Yevropada yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar zamin bo‘ldi. Immanuel Kant ijodi butun insoniyat madaniyati rivojiga bebaho hissa bo‘lib qo‘shildi. U butun olam rivojlanib boruvchi jarayon ekanligi, yer sayyorasi o‘z tarixiga ega ekanligi to‘g‘risidagi kosmogonik gipotezaning muallifi sifatida tanildi[7]. Bilishda dialektika elementlari borligini qayd etdi va o‘zining antinomiyalar nazariyasini dialektikaning markaziga qo‘ydi. Fixte yagona, ishonchli asosga ega bo‘lgan bilimning ichki yagona tizimini yaratishga intildi. Uningcha bilib bo‘lmaydigan olam va dunyo hodisalari ta’sir etmaydigan va ayni vaqtda o‘zida hodisalar sababini jo qilgan “narsa o‘zida” tushunchasi ziddiyatlidir[8].

Falsafada rivojlanish haqidagi g‘oyalarni tushunish va batafsil bayon etishda Gegelning qarashlari muhim o‘rin tutadi. U o‘zidan oldingi faylasuflardan farqli holda tabiiy, tarixiy va ma’naviy ruhiy taraqqiyot jarayonlarini bir butun, yaxlit va izchil holda ifodalab bera oldi. Dialektik metodning yaratuvchisi sifatida unga ayniqsa, o‘sha davrdagi tarixiy rivojlanish jarayoni va undan kelib chiqadigan jamiyat taraqqiyoti dialektikasi katta ta’sir ko‘rsatdi. U olamni dialektik anglash metodini sistematik ravishda bayon etib berdi. U borliq va bilish taraqqiyotining

[6] Туленов Ж. Диалектика назарияси. - Т.: Ўзбекистон, 2001. - Б. 8.
[7] Кант И. Новая теория движения и покоя и связанных с этим выводов в первых основаниях естествознания // Кант И. Сочинения: в 6 т. - М.: Мысль, 1964. - Т. 1. - С. 375.
[8] Фихте И.Г. Основы общего наукоучения / Пер. с нем. Б.В. Быховский. - М.: Мысль, 1993. - С. 80.

umumiy dialektikasini hukmronlik va qullik, erkinlik va begonalashish, jamiyat va individ, haqiqat va yanglishish kabi qarama-qarshi tomonlarning dialektikasi ko‘rinishida tushuntirib berdi[9]. Bu merosning tarixiy ahamiyati *birinchidan* dialektika qonun va kategoriyalari, ularning o‘zaro aloqadorligi va bilishdagi ahamiyatini ko‘rsatib berganliklarida, *ikkinchidan,* dialektikaning borliq qonuniyatlarini inson tafakkurida aks etadigan fan ekanligini ilmiy tarzda asoslab berganliklarida va *uchinchidan* dialektika qonun va kategoriyalarini bilish jarayoniga tatbiq etib, falsafaning bilish nazariyasini yaratganliklarida ko‘rinadi.

Tadqiqotda dialektikaning ahamiyati jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarni tushunish va ularga ongli munosabat bildirish bilan izohlanadi. Yangi iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy ehtiyojlar va ma’naviy yangilanish mavjud fikrlash stereotiplarini qayta baholashni talab qiladi. Bunda tarixiylik tamoyili hodisaning kelib chiqishini, aloqadorlik tamoyili uning boshqa jarayonlarga ta’sirini, rivojlanish tamoyili esa mavjud holatning o‘zgarish imkoniyatlarini aniqlashga yo‘naltiradi.

Dissertatsiyada Jondor Tulenov falsafiy dunyoqarashining shakllanish manbalari uning ilmiy faoliyati va davrning intellektual muhiti bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Olimning falsafiy qonunlar, kategoriyalar tizimi, ilmiy tafakkur uslubi, ijtimoiy taraqqiyot va qadriyatlarga doir izlanishlari yagona muammolar doirasi sifatida tahlil qilingan. Bunda nazariy an’anaga mansublik, uni ijodiy o‘zlashtirish va yangi ijtimoiy sharoitda qo‘llash imkoniyatlari o‘rtasidagi munosabatga e’tibor qaratilgan. J.Tulenov merosining o‘ziga xos jihatlaridan biri qonunni uning obyektiv asosi, amal qilish xususiyati va namoyon bo‘lish sharoitlari birligida tushuntirishidir. Qonunning yuzaga chiqishi uchun tegishli sharoitlarning ahamiyatini hisobga olish ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishda ayniqsa muhimdir. Chunki jamiyatdagi umumiy aloqalar insonlarning ehtiyojlari, maqsadlari va ongli faoliyati orqali muayyan shaklda namoyon bo‘ladi. J.Tulenovning “Dialektika nazariyasi” asariga tayangan holda, dialektika kategoriyalarining mazmuni obyektiv voqelik bilan, ifodalanish shakli esa inson tafakkuri bilan bog‘liqligi isbotlangan[10]. Kategoriyalar mazmunining ilmiy bilish va amaliyot rivoji davomida boyishi olim merosidagi muhim metodologik yo‘nalish sifatida baholangan.

Dissertant fikricha, J.Tulenovning ilmiy faoliyati asosan XX asrning 50-yillarida boshlangan bo‘lib, vafotiga qadar (2002) uzluksiz va qizg‘in tarzda davom etdi. Olim 1953-yilda falsafa fanlari nomzodi darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qildi. 1962-yilda Leningrad davlat universiteti ilmiy kengashida “Qonun falsafiy kategoriya sifatida” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1984-yilda O‘zFA Akedemiyasining muqbir a’zosi etib saylandi, 2000-yilda Akademik unvoniga sazovor bo‘ldi. Ilm-fan rivoji va kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari uchun unga “O‘zbekiston fan arbobi” faxriy unvoni berilgan. Dialektika nazariyasi bo‘yicha ishlari uchun 1981-yilda J.Tulenov Beruniy nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlangan[11].

Tadqiqotchi fikricha, o‘zbek milliy falsafasi rivojiga J.Tulenov ontologiya, gnoseologiya, mantiq, metodologiya, aksiologiya, ijtimoiy falsafaga oid qarashlari

[9] Qarang: Ғарб фалсафаси. /тузувчи Қ.Назаров. -Т.: Шарқ, 2002. Б - 483.
[10] Qaeang: Туленов Ж. Диалектика назарияси. - Т.: Ўзбекистон, 2001. - 324 б.
[11] Туленов Ж. Фалсафий маданият ва маънавий камолот. - Т.: Меҳнат, 2000. - Б. 40.

asosida muhim hissa qo‘shgan. Ayniqsa olimning xizmatlari dialektika nazariyasiga oid masalalarni ishlab chiqqanligi va hayotga tatbiq qilganligida ko‘rinadi. Masalan:

- falsafiy qonun va kategoriyalarning mohiyati, ularning strukturasi va sistemasi, namoyon bo‘lish shakllari, o‘zaro aloqadorligi, ilmiy bilish va amaliyotdagi o‘rni;
- ilmiy tafakkur uslubi, uning mohiyati, tarixiy tiplari va metodologik ahamiyati;
- jamiyatni ilmiy bilish va ilmiy boshqarish muammolari, ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlarning bilish jarayoniga ta’siri, ijtimoiy ziddiyatlar va ularni bartaraf etish shakllari;
- milliy istiqlol mafkurasi va uning falsafiy jihatlari, istiqlol mafkurasini hayotga tatbiq etish masalalari;
- mustaqillik va uning falsafiy jihatlari, mustaqillikning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy asoslari;
- qadriyatlar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni; milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligi; milliy qadriyatlarning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishdagi vositachilik roli;
- mustaqillik sharoitida falsafani yangilash va umuminsoniy qadriyatlar darajasidagi fundamental fan sifatida rivojlantirish masalalari va hokazolar.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, dialektika borliq, tafakkur va jamiyat rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi fundamental falsafiy nazariya hamda ilmiy bilishning universal metodologik asosidir. Dialektik tafakkur borliq va bilishdagi aloqadorlik, o‘zgarish hamda rivojlanishni tushuntirishga qaratilgan nazariy qarashlar va tamoyillarni ifodalaydi, tushunchalarni o‘zaro bog‘liqlikda qo‘llash va chiqarilgan xulosalarni tanqidiy ko‘rib chiqish faoliyatida namoyon bo‘ladi. Dialektikaning qonunlari va kategoriyalari tabiat, jamiyat hamda tafakkur rivojlanishining mexanizmlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jondor Tulenovning dialektika, falsafiy qonun va kategoriyalar, ilmiy tafakkur metodologiyasi, ijtimoiy taraqqiyot, milliy qadriyatlar hamda mustaqillik falsafasiga oid qarashlari O‘zbekiston falsafiy tafakkuri rivojida muhim o‘rin tutadi.

Dissertatsiyaning **“Dialektika nazariyasiga yangicha yondashuvning hayotiy zarurati va ilmiy-nazariy ahamiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobida Jondor Tulenov qarashlarining ijtimoiy taraqqiyotni tushuntirishdagi o‘rni, dialektika qonunlari va kategoriyalarining o‘zaro aloqadorligi hamda ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishdagi metodologik imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Ijtimoiy taraqqiyotning dialektik talqini jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini, shaxs faoliyati va ijtimoiy munosabatlarni o‘zaro ta’sirda o‘rganishga yo‘naltirilgan. Jondor Tulenov merosida falsafiy tafakkurning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy jarayonlarni anglash bilan bog‘lanishi mazkur yondashuvning amaliy ifodasidir. Yangilanishlar mavjud munosabatlarning o‘zgarishi bilan birga, insonning voqelikka qarash usuli va faoliyat mezonlarining qayta shakllanishini ham qamrab oladi. Shu bois jamiyat taraqqiyotini tahlil qilishda obyektiv sharoitlar va subyektiv omillar aloqadorligiga e’tibor qaratiladi.

Tadqiqotning J.Tulenovning kategoriyalarni guruhlashiga doir tahlilida borliq va uning shakllarini, umumiy aloqadorlik hamda taraqqiyotni, shuningdek, bilish

jarayonini ifodalovchi tushunchalar ajratilgan. Bunday tasnif ijtimoiy voqelik tahlilida obyektning mavjudlik xususiyatlari, uning o‘zgarish munosabatlari va uni bilish usullarini bir-biriga bog‘lash imkonini beradi. Dissertatsiyada ijtimoiy borliq bilan ma’naviy borliqning aloqadorligi ko‘rib chiqilgan. Ilmiy g‘oyalar, axloqiy me’yorlar va madaniy shakllar jamiyat hayotining faol tarkibiy qismlari sifatida talqin etilgan.

Qonuniyatning inson ongidan mustaqil mavjudligi uni ifodalovchi nazariyaning har doim to‘liq va o‘zgarmas bo‘lishini anglatmaydi. Ilmiy tushuncha amaliy tajriba va yangi bilimlar asosida aniqlashib boradi. Qonunlar bilan kategoriyalar voqelikdagi aloqalarni umumlashtirishi jihatidan bir-birini to‘ldiradi. Ayni vaqtda ular rivojlanishning turli tomonlarini tushuntirishi sababli ularni mazmunan tenglashtirish mumkin emas. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni rivojlanishning ichki manbaini, miqdor va sifat o‘zgarishlarining o‘zaro o‘tishi uning mexanizmini, inkorni inkor qonuni esa yangilanishdagi vorisiylik va yo‘nalishni tushuntirishiga oid tahlillar sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik, mohiyat va hodisa, mazmun va shakl kategoriyalarining vazifalari bilan hamohangdir. Shu asosda rivojlanishning umumiy tomonlarini bilish uning muayyan sharoitda kechish xususiyatlarini alohida o‘rganishni talab etadi.

Tadqiqotda sababiy bog‘lanish bilan qonuniyatni aynanlashtirmaslik masalasi alohida tahlil qilingan. Sababiy munosabatlarning barchasi bir xil darajada zaruriy, umumiy yoki barqaror bo‘lmaydi. Shu bois muayyan voqeaning sababini topish uning umumiy rivojlanish qonunini aniqlash bilan teng emas. Ijtimoiy tahlilda aloqaning takrorlanishi, yuzaga chiqish sharoiti va jarayon yo‘nalishiga ta’sirini tekshirish talab etiladi. Ushbu farqlash ijtimoiy taraqqiyot tendensiyalarini baholashda tasodifiy holatlarga ortiqcha umumiy mazmun yuklamaslik uchun muhim metodologik mezon sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, metod, metodologiya va tafakkur uslubi tushunchalarining o‘zaro munosabati aniqlashtirilgan. J.Tulenovning ushbu tushunchalarni farqlashga doir mulohazalari asosida bir xil metoddan foydalanish turli davr yoki fanlarda bir xil tafakkur uslubi mavjudligini anglatmasligi ko‘rsatilgan. Uning “Dialektika va tafakkur tarzi”[12] monografiyasida, “Dialektik tafakkurning shakllanishi”[13], “Ilmiy bilishda sub’ekt va ob’ektning dialektikasi”[14] va boshqa asarlarida hozirgi zamon inqilobi va ijtimoiy amaliyot ehtiyojlarini hisobga olgan holda tafakkur tarzi tushunchasi va uning asosiy tarkibiy elementlari konkretlashtirilgan.

J.Tulenov tadqiqotlaridagi o‘ziga xos jihat shundaki, *birinchidan*, unda ko‘riladigan masalalar aniq belgilab olinadi, *ikkinchidan*, masalalarni yechishning muhimligi va zururligi ko‘rsatiladi, *uchinchidan,* hosil qilingan xulosalar hayotiy dalillar bilan yetarlicha isbotlanadi, *to‘rtinchidan,* natijalarning kundalik hayot uchun ahamiyati ko‘rsatib beriladi. “Tafakkurni qayta qurish, - deb yozadi J.Tulenov, - bu insonlar ongini, ma’naviy dunyosini qayta shakllantirishdir. O‘zbekistonning har bir fuqarosi bu zaruratni chuqur anglab yetishi kerak,

[12] Qarang: Туленов Ж. Диалектика ва тафаккур тарзи. - Тошкент: Фан, 1976. - 280 б.
[13] Qarang: Туленов Ж. Диалектика и стиль научного мышления. - Ташкент: Ўзбекистон, 1983. - 276 с.
[14] Qarang: Туленов Ж. Илмий билишда субъект ва объектнинг диалектикаси. - Тошкент: Ўзбекистон, 1987. - 176 б.

tafakkurga xalaqit berib turuvchi, hayot talabiga javob bera olmaydigan eski, totalitar yondashuvlarni, ko‘nikmalarni, faoliyat uslublarini va odatlarni aniq ko‘ra olishi va amaliyotga yangicha qaror qabul qila olishi, mamlakatda sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar xarakteriga mos keladigan tarzda faoliyat tashkil qilishi kerak”[15].

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, dialektika nazariyasiga yangicha yondashish zamonaviy ilmiy tafakkur taraqqiyoti va jamiyatdagi murakkab jarayonlarni chuqur anglash zarurati bilan bog‘liqdir. Binobarin, dialektik yondashuv nazariy merosga tanqidiy munosabatni, tushunchalarni aniqlashtirishni va ularning qo‘llanish chegaralarini belgilashni talab qiladi. Jondor Tulenov dialektikani faqat nazariy ta’limot sifatida emas, balki ilmiy bilishning universal metodologik usuli sifatida talqin qilib, uning tamoyillari, qonunlari va kategoriyalarining ilmiy tafakkurdagi ahamiyatini asoslab bergan. Olimning gnoseologik qarashlarida dialektika qonunlari va kategoriyalarining o‘zaro aloqadorligi ilmiy bilish jarayonining zaruriy sharti sifatida yoritilgan. Bu ilmiy merosda tafakkur uslubi, ilmiy bilish metodlari va metodologiya masalalari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda tadqiq etilgan. Olim ilmiy tafakkur uslubini muayyan tarixiy davrda fan taraqqiyotining yo‘nalishini belgilovchi metodologik tamoyillar, g‘oyalar, nazariyalar va kategoriyalarning yaxlit tizimi sifatida talqin etgan. Olimning ilmiy merosi dialektik tafakkurning shakllanish qonuniyatlarini ochib berish, zamonaviy ilmiy bilish metodlarini takomillashtirish hamda falsafiy tadqiqotlarda dialektik yondashuvning imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Jondor Tulenov falsafiy merosining o‘zbek milliy falsafasi rivojlanishidagi o‘rni va zamonaviy ahamiyati”** deb nomlangan uchinchi bobida olimning qadriyatlarga oid qarashlari, shaxsning ijtimoiy mas’uliyati, yoshlarning dialektik fikrlash madaniyatini shakllantirish mexanizmlari hamda raqamli muhitdagi tafakkur muammolari tahlil etilgan.

Qadriyat voqelikdagi hodisaning inson va jamiyat ehtiyojlari, manfaatlari hamda maqsadlariga munosabati orqali anglanadi. Turli guruhlar ayni hodisaga turlicha munosabat bildirishi qadriyatlarning ijtimoiy mazmunini o‘rganishni talab etadi. Qadriyatlar mazmuni, amal qilish sohasi va qamroviga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi aloqadorlik milliy o‘zlik hamda madaniy hamkorlikni tushuntirishning muhim asosi bo‘lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar tarixiy xotira, til, urf-odat va madaniy tajribada ifodalansa, mintaqaviy qadriyatlar mushtarak manfaatlar hamda tarixiy aloqalarda namoyon bo‘ladi. Umuminsoniy qadriyatlar esa inson hayoti, tinchlik, ilm-ma’rifat va hamkorlik singari keng ahamiyatli maqsadlar bilan bog‘lanadi.

Tadqiqotchi fikricha, an’anaviylik va zamonaviylik munosabati qadriyatlar taraqqiyotining dialektik xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi. An’ana tarixiy tajriba va davomiylikni saqlaydi, yangilanish esa ushbu tajribani o‘zgargan sharoitga muvofiq qayta anglashni talab etadi. Shaxsning ongli munosabati qadriyatning mazmuni, hayotiy vazifasi va amaliy oqibatlarini tushunishi orqali shakllanadi. Qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati shaxsiy tanlov, vijdon va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘langan.

[15] Туленов Ж. Диалектика и современность. - Ташкент: Фан, 1988. - С. 412-413

